

ISSN 3030-3370

№ 1 (4) 2024



# AYNY VORISLARI

XALQARO ELEKTRON JURNAL  
INTERNATIONAL ELECTRONIC JOURNAL

**ISSN 3030-3370**

**“AYNIY VORISLARI”**  
**xalqaro elektron jurnal**

**«НАСЛЕДНИКИ АЙНИ»**  
международный электронный  
журнал

**“AYNIY’S SUCCESSORS”**  
international electronic journal

**№ 1 (4) 2024**

**TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK MUAMMOLARI**

<b>11. Abuzalova Mehriniso Kadirovna, Avliyoqulova Lola Bebutovna</b>	<b>Badiiy matnning psixolingvistik tahlili</b>	<b>81</b>
<b>12. Nazarova Saida Axmedjanovna</b>	<b>So'roq gap nutqiy muloqot birligi sifatida</b>	<b>87</b>
<b>13. Нигматова Гулиоз Хамидовна</b>	<b>Zamonaviy o'zbek she'riyatidagi fitomorf metaforalar lingvopoetikasi</b>	<b>94</b>
<b>14. Muqimova Gulnora Rashidovna</b>	<b>Zamonaviy o'zbek she'riyatidagi fitomorf metaforalar lingvopoetikasi</b>	<b>101</b>
<b>15. Abdulxayrov Dilshod Pulatovich</b>	<b>Die stadtführung als aktivität der wissensvermittlung</b>	<b>108</b>

**RETRO**

<b>RETRO</b>	<b>Садриддин Айний. "Эсдаликлар"</b>	<b>114</b>
--------------	--------------------------------------	------------

**FILOLOGIYA ILMIDAGI YANGI QADAMLAR**

<b>FILOLOGIYA ILMIDAGI YANGI QADAMLAR</b>	<b>Yosh olimlar minbari</b>	<b>117</b>
---	-----------------------------	------------

*Nazarova Saida Axmedjanovna,  
Buxoro davlat universiteti dotsenti,  
filologiya fanlari nomzodi  
E-mail: s.a.nazarova@buxdu.uz*

## **SO'ROQ GAP NUTQIY MULOQOT BIRLIGI SIFATIDA**

**Annotatsiya:** maqolada o'zbek tilidagi so'roq gap va uning ko'rinishlari, so'roq gaplarning lisoniy va nutqiy xususiyatlari, nutqiy muloqotda voqelanishi hamda pragmatik mazmun kasb etishi haqida fikr yuritilgan. O'zbek tilshunosligida gap va uning turlarini pragmalingvistik tadqiq qilish muammosiga bevosita aloqador masalalar, xususan, so'roq gaplarning nutqiy muloqot birligi sifatida qo'llanishi, adresant-adresatlarning kommunikativ munosabatlarida nutqiy tuzilmalarni shakllantirishi, turli pragmatik mazmunni ifodalash imkoniyatlari tahlilga tortilgan.

**Kalit so'zlar:** gap, so'roq gap, substansial tahlil, nutqiy muloqot, adresant, adresat, pragmatik mazmun, verbal vosita.

**Аннотация:** в данной статье исследованы вопросительное предложение и его виды в узбекском языке, языковые и речевые особенности, реализация в речевом общении и pragmaticеское содержание. Проанализированы вопросы употребления вопросительных предложений как единиц речевого общения, формирования речевых конструкций в коммуникативных отношениях адресант-адресат, возможности выражения pragmaticеских значений, связанные с проблемой изучении предложения и его видов с точки зрения pragmalingвистики в узбекском языкоznании.

**Ключевые слова:** предложение, вопросительное предложение, субстанциальный анализ, речевое общение, адресант, адресат, pragmaticеское содержание, вербальное средство выражения.

**Abstract:** the article discusses the interrogative sentence and their types in Uzbek language, linguistic and speech features, implementation in speech communications and their pragmatic content. The issues of using interrogative sentences as a unit of speech communication, the formation of speech structures in addresser-addressee communicative relations, the possibility of expressing pragmatic meanings related to the problem of studying a sentence and its types from the point of view of pragmalinguistics in Uzbek linguistics are analyzed.

**Keywords:** sentence, interrogative sentence, substantive analysis, verbal communication, addresser, addressee, pragmatic content, verbal means.

**Kirish.** Tilning asosiy vazifasi axborot yetkazishdan iborat. Shunga ko'ra, til birliklari axborot tashish bilan aloqador nomlash va ifodalash vazifalarini bajaradi.

Nomlash vazifasi tufayli til birliklari nominativ birliklar tizimini tashkil etsa, ifodalash vazifasi sabab ular kommunikativ birliklar tizimiga birlashadi.

Gap fikr va tuyg'u ifodalashi bilan boshqa til birliklaridan farq qiladi. Ayni vazifani axborot almashinuv jarayonida amalga oshirgani bois kommunikativ birlik sanaladi va kommunikativ birliklar tizimidan o'rinn oladi. Aytish joizki, gap kishilik jamiyatidagi kommunikativ munosabatlarning eng qulay, sodda va muhim verbal vositasi hisoblanadi.

Gapning tarkibi, tuzilishi, qurilishi, turlari va qo'llanilishi haqida ma'lumot beruvchi turli sintaktik nazariyalar mavjud. Xususan, substansial tahlil usullari asosida gap va turlarining lisoniy sintaktik tabiatni, lisoniy sintaktik qurilishi va qurilish qoliplari aniqlangan [1; 7; 8; 9]. Shunday bo'lsa ham, gap va turlarining ilmiy tadqiqi bu nazariy asoslar bilan cheklanmaydi. Zotan, gap vazifasini nutq voqeligidan tashqarida amalga oshirolmaydi. Til egalari nutqiy faoliyatida gap qanday niyat va maqsad, qanday vaziyat va sharoit, qaysi uslub va shaklda ifodalanmasin, o'z vazifasini nutqda voqelanishi asosida aniqlashtiradi. Shunga ko'ra, gap, umuman, gap turlarining nutq faoliyatida o'rganilishi til birligi sifatida nafaqat sintaktik tabiatini, balki turli nutqiy omillar qurshovida ochiladigan pragmatik xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. So'roq gapga xos pragmatik xususiyatlar tahlili gap va uning turlarini pragmalingvistik paradigmada tadqiq qilish nuqtayi nazardan dolzarbdir.

**Asosiy qism.** Ma'lumki, sintaktik birliklar – so'z birikmasi va gap sistemaviy, struktur, semantik, substansial yo'naliishlarda tadqiq qilinib, ilmiy asoslari shakllangan [1; 3; 4; 7; 8; 9]. Fanda ilmiy paradigmalarining almashinuviga tilni til egasi – lisoniy shaxs nuqtayi nazardan nutqiy faoliyat doirasida o'rganishni ijtimoiy zaruriyatga aylantirdi. Shunga ko'ra, gap va uning turlarini ham nutqiy faoliyat doirasida tadqiq etish ehtiyoji yuzaga keldi. Zero, o'zbek jamiyatidagi milliy yuksalish jarayoni fanni rivojlantirish va ilmiy dunyoqarashni yangilashni, shu jumladan, "o'zbek tilshunosligi fanidan lisoniy imkoniyatlarning nutqiy voqelanishini tekshirishga, ona tili imkoniyatlaridan amaliy foydalanish samaradorligiga erishishning lingvistik ta'minini tayyorlash muammosi bilan shug'ullanishga jiddiy kirishishni talab qilmoqda. Yangi asr fani zimmasiga yuklatilayotgan bu ijtimoiy buyurtma tilni yangi – substansial-pragmatik asosda tadqiq qilish asosida amalga oshiriladi" [2, 27].

Fikrni shakllantirish va bayon qilish gap orqali amalga oshadi. Shu bois gap kishilarning bir-biriga axborot uzatish uchun ishlataligining asosiy birlik bo'lib, fikr ifodalashning eng oddiy va tipik ko'rinishidir. Gap so'zlovchi uchun fikr ifodalash va axborot uzatish, tinglovchi uchun axborot qabul qilish vositasi sanaladi. Tilning asosiy vazifasi – odamlarning bir-birlarini tushunishlari va o'zaro axborot almashinuvlarida vosita bo'lib xizmat qilish. Axborot uzatish va qabul qilish vositasi bo'lish tilning kommunikativ mohiyatidir. Kommunikatsiya jarayoni

jamoani taqozo qiladi. Aniqrog'i, muayyan tilda axborot uzatish va qabul qilish shu tilda so'zlashish malakasiga ega kishilarni taqozo qiladi. Bu esa kommunikatsiya jarayoni ijtimoiy tabiatga egaligidan dalolat beradi.

Nutqda voqelashgan gaplar qurilish xususiyatlaridan tashqari yana o'nlab nutqiy xususiyatlar va nutqiy ma'nolarga ega bo'lishi mumkin. Bulardan biri – ohang va u bilan uzviy bog'liq bo'lgan gapning ifoda maqsadiga ko'ra, darak, so'roq, buyruq, undov, his-hayajon, so'roq-undov (ritorik) va boshqa ma'nolarga ega bo'lishidir. Bunday ma'nolar gapning lisoniy qurilishiga aloqador emas.

Gapning ifoda maqsadi nosintaktik hodisalardan biri bo'lib, gaplarning darak, so'roq, buyruq, undov, his-hayajon kabi ma'nolar kasb etishiga sabab bo'ladi. Gap ifoda maqsadiga ko'ra uch turga bo'linishi ma'lum:

- 1) darak gap; 2) so'roq gap; 3) buyruq gap.

Ayrim lingvistik manbalarda to'rt turga ajratilib, istak gap ham kiritilgan.

So'roq gaplar nutqda so'zlovchiga noma'lum narsa, hodisa, voqeа, predmet, shaxs, harakat, holat, makon, zamon yoki jarayon haqida ma'lumot olish maqsadida yuzaga keladi. Ta'kidlash kerakki, so'zlovchi nutqiy jarayonda so'roq gaplar yordamida suhbatdoshidan javob olishga urinadi. Shu sababdan bu gaplar dialoglarda, nutqiy muloqotda ko'p qo'llaniladi.

Masalan: *Qaysi mahallada yashaysiz?* (tanishuv vaziyatida); *Ahvolingiz yaxshimi?* (so'rashuv vaziyatida); *Menga nima olib keldingiz?* (bolaning murojaatida); *Masalani qaysi usullar bilan yechdingiz?* (dars jarayonida); *Sen-chi? O'sha qizni taniysanmi?* (do'stlar suhbatida) va h.

Barcha tillarda bo'lganidek, o'zbek tilida ham so'roq gaplarni shakllantiruvchi lisoniy vositalar mavjud. So'roq gaplar

- 1) so'roq olmoshlari (*kim? nima? qaysi? qancha? necha? qachon?...*);
- 2) so'roq yuklamalari (*[-mi], [-chi], [-a], [-ya]*);

3) so'roq ohangi yordamida shakllanadi va gap oxiriga so'roq belgisi qo'yiladi.

So'roq olmoshlari bilan shakllangan gap so'roqqa javob bo'luvchi so'z (so'zshakl yoki birikma)ni talab qiladi: *– O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida"gi Qonuni qachon qabul qilihgan? – 1989-yilning 21-oktabrida qabul qilingan.*

So'roq yuklamalari bilan shakllangan so'roq gaplar esa "Ha" yoki "Yo'q" javobini talab qiladi. Masalan: *– Omadga ishonasanmi? – Ha. Agar ishonmasam, bu kunlarga yetmasdim.*

Ohang gapning ifoda mazmuniga ta'sir qiladi, jumladan, so'roq gaplarni shakllantiradi. Masalan: *Salima shu yil o'qishni bitiradi. – Salima shu yil o'qishni bitiradi?* (*Salima shu yil o'qishni bitiradimi?* so'roq gapi hosil bo'ladi.)

Nutqiy voqelikda so'roq gapda so'roq ma'nosiga boshqa ma'no qorishgan bo'lishi mumkin:

- 1) so'roqning o'zi: *Halim keldimi?*;
- 2) so'roq-hayrat: *Xabar keldimi?*;
- 3) so'roq-taajjub: *Yakshanba kuni ham ishlaymizmi?*;
- 4) so'roq-mamnunlik: *Halim o'qishni tugatdimi?*;
- 5) so'roq-gumon: *Javob berarmikin?*;
- 6) so'roq-taxmin: *Siz bilan kecha ko'rishmagandikmi?*;
- 7) so'roq-darak: *Tugatdimi? (Ko'rdingmi, tugatdi.)*;
- 8) so'roq-buyruq: *Tezroq bormaysizmi?* [9, 382].

O'z navbatida, so'roq gaplar kutilayotgan javobga munosabatiga ko'ra uch turga bo'linadi:

1. Sof so'roq gap. Bunday so'roq gap, odatda, javob talab qiladi:

– *O'qituvchi qani? Qaysi dars bo'lishi kerak edi?*

2. Ritorik so'roq gap. So'roq gapning bu turida javob talab qilinmaydi. Zotan, javob gapning o'zida yashiringan va barcha uchun ma'lum bo'ladi. Bu xil gap mohiyatan darak gap, ammo shaklan so'roq gapga teng. Masalan: *Kim biladi ayol zotining ko'nglini?*

Ritorik so'roq gaplar mazmunan rang-baranglikka ega:

– tasdiqni ifodalaydi: *Kim ona yurtini sevmaydi?!*

– inkorni anglatadi: *Vaqtni ortga qaytarib bo'larmidi?!*

– taajjubni aks ettiradi: *Piching qilgani qiziq bo'ldi-ku?*

– g'azabni ifodalaydi: *Bir norasidani shunchalik xo'rlaysanmi, nokas?*

3. So'roq-buyruq gap. So'roq gapning bu turi "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida shunday ta'rislanadi: "So'roq-buyruq gap so'roq yo'li bilan buyurish ma'nosini ifodalaydi: *Tezroq kelmaysizmi?*" [9, 382].

Demak, so'roq gapning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

1. So'roq gap gapning ifoda maqsadiga ko'ra bir turidir.

2. So'roq gap grammatik shakllangan bo'ladi. So'roq gapni shakllantiruvchi vositalar uch xil: so'roq olmoshlari, so'roq yuklamalari va ohang.

3. So'roq gap mazmuniga muvofiq ohangga ega bo'ladi. Nutqiy vaziyat va kommunikativ maqsad, shuningdek, mazkur gapni shakllantiruvchi vositalar so'roq ohangini belgilaydi.

4. So'roq gap nutqda, umuman, axborot olish, uning noma'lum qirralarini aniqlashtirishga xizmat qiluvchi sintaktik birlik sanaladi.

So'roq gaplar nutqiy muloqotda faol qo'llanadi. So'roq gaplar muloqotda voqelashiganda qanday xususiyatlarni namoyon etadi? Buni aniqlash uchun badiiy matndagi muloqot ko'rinishlariga e'tibor qaratdik. Jumladan, Sh.Xolmirzayevning "Tabassum" hikoyasida so'roq gaplar qo'llangan muloqotni kuzatdik:

"Shunda oldidan bir kiyik chiqib qoldi. Keyin bir ovchi ko'rindi. Kiyik Jalildan hurkib, ovchiga burildi. U otib oldi. Jalil chopib borib, kiyikning oyog'ini bosib turdi. Ovchi so'yib halolladi. Keyin Jalil:

- *Og'a, bizdan hurkib sizga yo'liqdi, tanimizni bermaysizmi?* -dedi.
- *Kimsan o'zing?*
- *Bu dunyoda otasi o'limgan kim bor, onasi o'limgan kim bor?*
- *Kimsan? Kimlardan bo'lasan? Nima qilib yuribsan?*
- Tagi yetimman, og'a... Lekin otamiz beli baquvvat odam o'tgan. Undan besh-o'nta ushoq mol bir cho'ponning qo'lida qolgan deb eshitar edim... Mana, fursati yetdi deb shuni qidirib chiqdim. Topsam, insof qilsa...
- *Bosmachilar yeb ketgan bo'lsa-chi?*
- Teshib chiqsin.
- *Qizillar yegan bo'lsa-chi?*
- Og'a, yetimning haqiga kim ko'z olaytirsa, topadi...
- *Oti nima ekan u cho'ponning?*
- Shuni bilmayman-da... Bir cho'pon deyishdi. Otam o'lim oldida tildan qolgan edi.

– *Shuni izlab yuribsan?"* [10, 119]

Muloqotning ushbu ko'rinishida o'n xil so'roq gap voqelashgan hamda ishtirokchilarning nutqiy harakatlarini shakllantirgan. Mazkur so'roq gaplarning pragmatik xususiyatlari muloqotda bajargan vazifalarida namoyon bo'ladi.

– *Og'a, bizdan hurkib sizga yo'liqdi, tanimizni bermaysizmi?* Mazkur gap o'ljaning bir ulushini talab qilish mazmuniga ega. Aniqrog'i, nutqiy tuzilma pragmatik jihatdan "Tanimizni/haqimizni/ulushimizni bering" mazmuni dagi darak gapga teng. E'tiborli tomoni shundaki, muloqotda talab/istak mazmuni so'roq gap orqali yuzaga chiqqan.

– *Kimsan o'zing?* Bu so'roq gapda o'z tani/haqini talab qilayotgan kishi shaxsini aniqlash va uning talab qilishga haqi bor yoki yo'qligiga ishora qilish mazmuni voqelashgan.

– *Bu dunyoda otasi o'limgan kim bor, onasi o'limgan kim bor?* Savolga savol bilan javob berish usuli orqali adresantning ota-onasi vafot etganligi, ya'ni yetim ekanligi haqida xabar berish ushbu so'roq gap shaklida aks etgan. Nutqiy tuzilmadagi bu xabar mohiyatan darak gapga tengdir. Chunki "Hamma ota-onasizlar kabi, men ham yetimman" mazmuni nutqiy muloqotda ritorik so'roq orqali ifodalanib, darak gapga nisbatan imkoniyatlari kengligini ko'rsatadi.

– *Kimsan? Kimlardan bo'lasan? Nima qilib yuribsan?* Bir-biriga mantiqan bog'langan uchta so'roq gapda adresant haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish, uning shaxsini – kasb-kori, nasl-nasabi, maqsadini aniqlashtirib olish mazmuni ifodalangan. Bu kabi so'roq gaplar ov jarayonida tanishuv vaziyati tufayli yuzaga kelgan. Tanishuv vaziyatida bunday savollar noodatiy tuyulsa-da, tog'da, ov paytida duch kelgan notanish kishiga nisbatan o'rinnlidir. Tayyor o'ljaga sheriklikni da'vo qilgan kishidan norozilik va "o'ljadan ulush olish" maqsadiga shubha bilan qarash sababli adresant savollari keskin tus olgan.

– *Bosmachilar yeb ketgan bo'lsa-chi?* gapi adresantning niyatini bilish va undan kelib chiqadigan harakatga undashni ifodalaydi. So'roq gap *Bosmachilar yeb ketgan bo'lsa, nima qilasan?* shaklida to'liq ifodalanganda ham kommunikativ maqsadni aniqlash, asosiysi, undash nutqiy harakatni yuzaga keltirgan bo'ladi.

– *Oti nima ekan u cho'ponning?* Ushbu gapdan so'zlovchining rost yoki yolg'on gapirganligini aniqlash, ishonchsizlik, gumonsirash mazmuni anglashiladi.

– *Shuni izlab yuribsan?* Adresantning bu gapida esa gumonni tasdiqlash, ya'ni "nahotki shuni izlab yuribsan?", "ehtimol, boshqa narsani izlayotgandirsan?", "aslida, maqsading cho'ponni izlash emas" mazmunidagi shubha, gumon va mantiqiy inkor o'z ifodasini topgan.

**Xulosa.** Ayon bo'ladiki, so'roq gapning nutqiy muloqotda voqelanish imkoniyatlari darak gapga nisbatan ancha keng bo'lib, ishora, talab, istak, undash, taxmin, tasdiq, inkor, sinash, ishonchsizlik, shubha-gumon, ikkilanish kabi pragmatik mazmun kasb etadi. So'roq gap nutqiy faoliyatda grammatik tabiatiga muvofiq vazifalardan tashqari til sohiblarining nutqiy harakatlarini shakllantiruvchi lisoniy verbal vosita, adresant va adresatlarning kommunikativ niyati, maqsadi, ehtiyojlari, ruhiy holati, madaniy kompetensiyasini ifodalovchi muloqotning verbal birligi sifatida xizmat qilishini ta'kidlash lozim.

### ADABIYOTLAR:

1. Абузалова М. Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик қурилиш қолипи ва унинг нутқда воқеланиши: Филол. фанлари номзоди... диссер... автореф. – Тошкент, 1994. –22 б.

2. Менглиев Б. Ўзбек тилини субстанциал-прагматик тадқиқ қилиш – давр талаби// Ўзбек тилшунослиги: тараққиёт тамойиллари, илмий муаммолар, истиқболдаги вазифалар. (Республика илмий-амалий анжуманинн материаллари тўплами). –Тошкент, 2012 йил 17-18 октябрь. –Б. 27-28.

3. Назарова С. Сўз биримаси лисоний синтактик қолиплари//Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. – Бухоро, 2016. – №4. – Б. 56-59.

4. Nazarova S.A., Khojiyeva M.Y. Substantial Description of Uzbek Word Combinations // International Journal of Psychosocial Rehabilitation. United Kingdom.ISSN:1475-7192, Volume-24, Issue-1, January 2020. – P.422-429. <https://www.psychosocial.com/article-category/issue-1-volume-24>

5. Назарова С.А. Тиббий реклама матнининг прагматик хусусиятлари// Сўз санъати Халқаро журнали. 2021.(4-жылд) – №3. – Б.169-178. ISSN 2181-9297 Doi Journal 10.26739/2181-9297.

<https://www.tadqiqot.uz/index.php/art/article/view/4149/3938>

6. Nazarova S.A., Hojiyeva M.Y., Jo'tayeva Z.Y. Gapda shaxs tavsisi va pragmatik mazmun // Филологиянинг долзарб масалалари. Халқаро илмий-

амалий конференция материаллари. 1-китоб. – Фарғона: ФарДУ, 2022. – В. 119-122.

7. Курбонова М. Ўзбек тилшунослигига формал-функционал йўналиш ва содда гап қурилишининг талқини: Филол. фанлари доктори... диссер.автореф. – Тошкент, 2001. – 51 б.

8. Курбонова М. Ҳозирги замон ўзбек тили (содда гап синтаксиси учун материаллар). – Тошкент: ЎзМУ, 2002. – 117 б.

9. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbanova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – 414 b.

10. Холмирзаев Шукур. Бодом қишда гуллади. Ҳикоялар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – 320 б.